

## **INGLIZ VA O'ZBEK TILIDAGI ATOQLI OTLARNING BOSHQA TILLARIGA TARJIMA QILISH JARAYONI**

*Allayorova Shaxnoza Primkulovna*

*Jizzakh State Pedagogical University a teacher of English language theory  
and practice department*

**Abstrakt:** *Bu maqola ingliz va o'zbek tillaridagi atoqli otlar haqida boshqa tillariga tarjima qilish jarayonini bayon qiladi. Atoqli otlar, turli xil iklim sharoitlarida o'sadi, shuningdek, ularning o'sish va rivojlanishi uchun zarur sharoitlar, siyosatlar va mavzular mavjud. Tarjima jarayoni maqsadga muvofiq talaffuz, so'z tuzilishi va kontekstni saqlashga e'tibor beradi. Bu qadriyat, tarjima jarayonini samarali va aniq qilish uchun muhimdir. Atoqli otlar haqida tushunchalarni o'rganish va ularga izohlar ko'rsatishni maqsad qiladi, shuningdek, tarjima jarayonida diqqatni qaysi muammolarga qaratish kerakligini ham ko'rsatadi. Maqolada atoqli otlar sohasidagi tarjima tadqiqotlarini o'rganish va o'zbek tilidagi atoqli otlar haqida ingliz tilidagi ma'lumotlarni talqin qilishda ko'rsatilgan davlat siyosati, o'qib olish muhimligi, va tarjima jarayonidagi qiyinchiliklar kabi muhim tushunchalarga e'tibor qaratilgan. Maqola yakuniy ravishda, atoqli otlar haqida tarjima qilish jarayonida talaffuz, so'z tuzilishi, va kontekstni saqlashga e'tibor qilishni takomillashtirishni maslahat beradi.*

**Kalit so'zlar:** *transkripsiya, kalkalash, yarim kalkalash, neologizm yaratish, astronomik atamalar, toponimlar*

Bir tildan boshqa bir tilga tarjima qilish jarayoni har doim murakkab jarayonlardan hisoblangan. Xususan atoqli otlarning tarjimasini barcha tarjimonlar va o'rganuvchilar duch keladigan dolzarb muammo hisoblanadi. Ko'pgina tilshunoslar, xorijiy til o'qituvchilar va o'rganuvchilarni qiynab keladigan savol "atoqli otlar tarjima qilinishi kerakmi yoki qanday bo'lsa shunday aytilaverishi

kerakmi” har doim paydo bo’ladi. Ko’pgina o’tkazilgan tadqiqotlardan keyin tarjima qilish yoki qilmaslik masalasi ko’rib chiqildi. Unga ko’ra haqiqiy matn hamda tarjima qilingan matn ikkalasi solishtirilganda, ko’pgina atoqli otlarni bir tilidan ikkinchi tilga tarjima qilinmaganini ko’rish mumkin. Bundan xulosa qilinishi mumkinki, atoqli ot o’ziga xos ekanligini tushunish va yuqori sifatli tarjima qilish uchun yetarlicha tajriba hamda mahorat talab qiladi. Atoqli otlarning ta’rifi hamda tasnifini ikki tilda ham yetarlicha ma’lumot berib o’tildi.

Zamonaviy lug’at hisoblangan” Longman” lug’atida atoqli otlarga quyidagicha sodda va aniq izoh beriladi. Unga ko’ra “atoqli otlar - bu "Monika", "Vashington" yoki "Turkiya" kabi otlar bo’lib, u ma’lum bir narsaning nomi bo’lib, bosh harf bilan yoziladi. Bunday otlarning tarjimasi mukammal bo’lishi bir nechta tarjima usullaridan foydalanish kerak. Tarjima sohasida izlanishlar olib borilgandan keyin, ko’pgina tarjima metodlari o’rganib chiqildi hamda aynan atoqli otga tegishli bo’lgan metodlar tanlab olindi. Bu metodlar quyidagilarni o’z ichiga oladi. Endi biz manba tildan maqsadli tilga o’tishning asosiy usullarini ko’rib chiqamiz:

- Transkripsiya – bu metod atoqli otlarni tarjima qilishda juda mashhur metodlardani biri bo’lib, bu metodda bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilinganda tarjima qilinayotgan tilning harflaridan foydalaniladi va tarjima qilingan tilning talaffuz qoidalariga amal qiladi yoki moslashtiriladi. Masalan:

- Steve- Stiv
- Facebook- Feysbuk
- New York Times – Nyu York Tayms
- Micheal- Maykl
- John – Jon
- Johny – Joni.

• Transkripsiya — bu tarjima metodi ko’proq alifbosi turlicha bo’lgan tillar o’rtasida ko’p qo’llaniladi. Bu metodda tarjima qilinayotgan so’zni lotin harflaridan kirill harflariga o’tkaziladi. Masalan:

- Toshkent – Ташкент
- Burj Xalifa – Бурж Халифа

- Dubai – Дубай
- Samsung – Самсунг
- O'zbekiston - Ўзбекистон
- Shanhay - Шанхай
- Everest - Эверест

•Kalkalash - bu metod tajima jarayonida juda ko'p qo'llaniladigan metod hisoblanadi. Bunda tarjima qiliniyotgan atoqli otlarni so'zma so'z tarjimasi hisoblanadi. Masalan:

- The Pacific Ocean – Tinch okeani
- Royal Family – Qirollik Oilasi
- Your (Royal) Highness – Hazrati Oliylari
- European Union –Yevropa Ittifoqi
- The United States of America – Amerika qo'shma shtatlari

•Yarim kalkalash- bu metoda tarjima qilinayotgan manba yarmi boshqa tilga tarjima qilinadi, qolgan yarmi esa o'z xolicha qoladi. Masalan:

- Bloody Merry – qonxo'r Merri
- Youth parliament – Yoshlar parlamenti
- Grant Canyon – Katta Kanyon

•Neologizm yaratish - bu metod faqatgina tarjima uchun foydali balki til lug'aviy boyligini ko'paytirish o'stirish uchun ham qo'l keladi. Sababi, ushbu metodda atrjima qilinadigan tilda ekvivalenti bo'lmasa ushbu metod qo'llaniladi.

- Piglet- Piglet
- Tik Tok- TikTok
- Telegram-Telegram

Atoqli otlarni tarjima qilish bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borilgan ularning orasida D.I.Ermolovich , O.I.Fonyakova , V.D.Bondalev kabi turli tilshunos olimlar tomonidan turli tadqiqotlar olib borilgan va biz ushbu olimlarning ayrimlarining ishlarini ko'rib chiqishga harakat qilamiz. Atoqli otlarning ham turlari ko'p; ismlar, joy nomlari, hayvon nomlari, tashkilot, kompaniya nomlari va boshqalar.

Yuqoridagi olimlar turli xil atolqi otlani turlicha tarjima qilish keraklini isbotlab  
[www.pedagoglar.org](http://www.pedagoglar.org)

berishgan. Ularning natijalari quyidagilardan iborat.

Toponimlar yoki geografik nomlar – D.I.Yermolovichning amalga oshirgan ishlariga ko'ra, tarjimonlar toponimlarni tarjima qilishda, agar u manba tilga tegishli bo'lsa, amaliy transkripsiyadan foydalanishi kerakli aytilgan. Lekin u manba tilga tegishli bo'lmasa toponimlar qaysi tildan olingan bo'lsa o'sha tildan tarjima qilinayotgan tilga tarjima qilish kerak va bu jarayonda transkripsiya tizimidan foydalanishlari kerak. Misol: Nemis tilidagi Rhenland Pfalz ingliz tilida Rhineland Palatine kabi eshitiladi, agar uni rus tiliga tarjima qilinadigan bo'lsa, ushbu so'z Райнланд Полотине ko'rinishida tarjima qilinadi. Ushbu noto'g'ri tarjima o'quvchini chalg'tib qo'yish mumkin shu sababli toponimlar qaysi tildag kelib chiqqanini bilish kerak Rheinland Pfalz - Райнланд Полотине. Boshqa misollar:

- Warsaw – Warsaw – Варшава (Воршов emas)
- Köln – Cologne – Кёльн (Колоне emas)
- München – Munich – Мюнхен (Мюнхем emas)
- Nürnberg – Nuremberg – Нюрнберг (Нюремберг emas)

Bizga ma'lumki toponim otlar kelishidan oldin uning nimaga tegishli ot ekanliklari keladi. Bunday holda turdosh ot tarjima qilinadi hamda atoqli ot o'z holicha qoladi. Misol:

- Isle of Man – Остров Мэн – Inson oroli
- the Amudarya river – река Амударья – Amudaryo daryosi
- the lake Huran – озеро Гуран – Huran oroli
- the Mediterranean sea – Средиземное море – Meditarean dengizi
- Mount Everest – Гора Эверест – Everest tog'i

Havaskor tarjimonlarga geografik joynomlarini tarjima qilishda, to'g'ri tarjimaga erishish uchun va to'g'ri kontekst berish uchun maxsus geografik joylar lug'atidan foydalanish kelakligini maslahat beradi. Ayrim xaritalardan ham joy nomlarining aniq bir tarjimasini ko'rish mumkin, ammo hamma xaritalarda ham hamma toponimlarni, ayniqsa, maydon, bino, uy ko'chasi kabi shahar toponimlarini uchratib bo'lmaydi va muammoning yechimi topilmagani uchun har bir tarjimon individual o'zgartirishlar berishga harakat qiladi. Ko'pgina tarjimonlar berilgan

atoqli otni ma'zosiga qarab tarjima qilishni yoki to'g'ridan to'g'ri, so'zma so'z tarjima qilishni afzal bilishadi. Misol uchun:

- Independence square – Mustaqillik maydoni
- Tashkent city – Toshkent shahri

Ammo ba'zi bir toponimlarga bu metod unchalik ham qo'l kelmaydi. Misol uchun:

- Times Square – Tayms maydoni
- Wall Street – Uall ko'chasi
- Wuhan city – Uhan shahri

Zoonimlar yoki hayvonlarning nomlari - bu hayvonlarga berilgan ismlar, ular boshqa so'zlar bilan aytganda taxalluslardir. Bunday ismlar, asosan, mushuklar, itlar, kalamushlar, qushlar va boshqalar kabi uy hayvonlariga yoki jamiyatda mashhur hayvonlarga (hayvonot bog'lari, sirk va boshqalar) beriladi. Zoonimlarning ikki sinfi mavjud: umumiy va individual. Umumiy zoonimlarga hayvon turlarini bildiruvchi nomlar kiradi. Misol: Pluton, Teddy, Maks, Bella (itlar uchun), Annabelle, Clarabelle, Betta (sigirlar uchun), Leo, Jek, Olive, Simba (mushuklar uchun), Rio, Champ, Trigger (otlar uchun). Bunday atoqli otlar ma'lum bir turning barcha a'zolari uchun ishlatiladi va ularning boshqa tillarda ekvivalenti borligi aniq. Ammo individual zoonimlar ma'lum bir uy hayvoni yoki hayvonga tegishli, shuning uchun biz alohida hayvonlarning taxalluslari ustida ishlaganda transkripsiya yoki transliteratsiyadan foydalangan ma'qul. Misol: Reks – Rex, Simba – Simba, Timon – Timon va boshqalar. Xalq og'zaki ijodi yoki ertaklardagi zoonimlarni tarjima qilish ustida ishlaganda, ularning ekvivalentlarini topishga e'tibor qaratishimiz kerak. Misollar: Коза дереза - Nanny goat, Серый волк – Big wolf va boshqalar. Asosiy muammo shundaki, bizda folklor qahramonlarini tarjima qiladigan va ikki xil tildagi ikki qahramonni qarama-qarshi qo'yadigan lug'atlar yo'q, shuning uchun tarjimon asosiy ekvivalentini topa olmasa, epitet stilistik usullaridan foydalanishi kerak. Bunday holatda, fe'l sifatdash ko'rinishida bo'ladi. Misol uchun: Курочка ряба – The Speckled Hen, Конёк горбунок – The little Humpacked Horse yoki ko'plik shaklidagi otlar: Косой зайчик – Squint Eyes, Hare

the long Ears, yoki sifatlar bilan ishlatilishi mumkin Мишка косолапый – Clumsy Bear, Муравушка хвастунишка – The Braggart ant. Chet tilida bunday so'zlarni yaratishda tarjimonlar ehtiyot bo'lishlari kerak, chunki tarjimonlar bunga ishonchlari komil bo'lmasa, asosiy ma'no o'zgarishi mumkin. Havaskor tarjimonlar yoki o'rganuvchilar epitetdan foydalanib tarjima qilmagani ma'qul.

Astronomik atamalar- astronomiya sohasiga qarashli bo'lgan atamalardir, shuning uchun ularni astronomik terminologiyaga muvofiq tarjima qilish kerak. Shuni ta'kidlash kerakki, astronomlarning aksariyati antik mifologiyadan olingan va ko'p hollarda rus va ingliz tillarida nomlar mos keladi. Misol: Mars – Марс, Jupiter – Юпитер, Apollo – АПОЛЛОН. Ularni rus tilidan ingliz tiliga tarjima qilish, ayniqsa transliteratsiya yoki tarjima usullaridan foydalanganda qiyinroq. Misol: *Географ* asteroidi *Geographer* deb noto'g'ri tarjima qilingan bo'lishi mumkin, ya'ni geografiya sohasida ishlaydigan kishi asteroid Geographosga o'xshash inglizcha nomga ega ekanligini anglatadi. DI Ermolovichning so'zlariga ko'ra, tarjimonlar uchun zodiak belgilarini bilish foydalidir. Ularning barchasi ikkita versiyaga ega, biri ingliz tilida, ikkinchisi lotin tilida. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, astronomiyalarni tarjima qilish yuqori sifatni talab qiladi, shuning uchun har qanday shubha tug'lsa, maxsus lug'at yoki ensiklopediyalarga murojaat qilish tavsiya etiladi.

Kemalar, kosmik kemalar va mashinalarning nomlari - o'rnatilgan amaliyot shuni ko'rsatadiki, bunday tipologiyaning tegishli nomlari maqsadli tilda bir xil ma'noni topish o'rniga transkripsiya qilinishi kerak, masalan, Queen Elizabeth deb nomlangan kema nomi Куин Элизабет sifatida tarjima qilinadi. (Королева Елизавета emas). Kosmik kemalar va mashinalar bilan bir xil narsa: Voyage – Вояджер, Vostok – Восток, Ураган – Uragan (Hurricane emas) va boshqalar.

Kompaniya va tashkilotlarning nomlari - Kompaniyalarning nomlari umumiy talablarga muvofiq transkripsiya qilinadi va o'zbek tiliga tarjima qilingan nomlar tirnoq ichida bo'lishi kerak, masalan: General motors - "General motors". Kompaniya nomlarini tarjima qilish jarayonida orfografik belgilar saqlanib qoladi (apostroflardan tashqari). Misol: Mc Donald's - Mcdonalds, Harrod's - Xarrods va

boshqalar

Adabiy asarlarning nomlari – Adabiy asarlarning nomlari bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilishda bir necha talablari bor. Bu jarayon juda ham murakkab hamda ma'suliyatli hisoblanadi. Adabiy asarlarning nomlarida alohida ma'no, o'zgacha stilistikasi bo'ladi. Shu sababli tarjima qilish jarayonida ushbu ma'no saqlab qolgan holda tarjima qilinishi kerak. Ammo agar adabiy asar nomlari oldin tarjima qilingan bo'lsa o'quvchilar uchun tushunarli bo'lishi uchun tarjima qilingan versiyadan foydalanish yaxshiroqdir. Misol uchun: Alis Randall tomonidan yozilgan “**The Wind Done Gone**” (2001) romani o'zbek tiliga “Shammolarda qolgan hislarim” deb tarjima qilingan. Tarjimon tuzatilishi kerak bo'lgan jiddiy xatolik yo'q deb hisoblamasa, tarjimonlar avvalgi tarjima yoki oxirgi muhokama natijalaridan foydalanishlari kerakligining asosiy sababi shu.

Atoqli otlarning tarjima qilish bilan bog'liq muammo tillar va madaniyatlararo muloqot davomida mavjud. Atoqli otni tarjima qilish tizimi va usuli to'g'ri o'rganilmasa, muammo hal qilinmasdan qolib ketaveradi hamda tarjimashunoslik jarayonida jiddiy muommolar keltirib chiqaradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Alcaraz, E. (1996). Translation and pragmatics. R. Alvarez and M. C. A. Vidal (eds). Translation, Power, Subversion. Clevedon: Multilingual Matters, 99-115.
2. Dukāte, A. (2009). Translation, manipulation and interpreting. Retrieved September 8 2014
3. Kamola TARJIMASHUNOSLIKDAGI YANGI YONDASHUVLAR: TARJIMASHUNOSLIKDAGI YANGI YONDASHUVLAR. K Hujumova - Журнал иностранных языков и лингвистики, 2022
4. L. V. Grehneva “On some aspects of periphrastic nomination”.. 2009 p.207

5. Lyskova. Classification of Periphrasis Meanings and the Aspect of Denotative-Semantic Correlations. 2010. p198
6. Primkulovna, Allayorova Shaxnoza. "INGLIZ VA O'ZBEK OLIMLARINING PERIFRAZALARNING TASNIFI BO'YICHA TADQIQOTLARI." *PEDAGOG* 6.12 (2023): 211-214.
7. Primkulovna, Allayorova Shaxnoza. "INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA MASHHUR OMMAVIY AXBOROT VAKILLARI, SIYOSATCHILAR VA ULARNING PERIFRAZADAGI ISMLARI." *PEDAGOG* 6.12 (2023): 206-210.
8. Zaxarova A.L. Periphrasis of the names of famous people. Saratov University. Department of Russian and Classical Philology, 2013.